

MAMLAKATIMIZ QONUNCHILIGIDA DAVLAT XARIDLARI RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Bozorov Akmal Amonovich

*Jamoat xavfsizligi universiteti, “Iqtisodiy fanlar”
kafedrası professori, i.f.d. (DSc)*

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

*Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Iqtisodiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi
E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com*

ANNOTASIYA

Maqolada davlat xaridlari tizimini, qonun va qonun osti hujjatlar bilan mustahkamlab borilishi masalalari yoritilgan, huquqiy-normativ asoslari rivojlanish davrlari, istiqbollari va xorij tajribasi qiyoslangan. «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining davlat xaridlarini amalga oshirishdagi asosiy yangiliklar ochib berilgan. Davlat buyurtmachilariga xarid qilish tartib-taomillarini takomillashtirish tartibi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, huquqiy-normativ asoslari, davlat xaridlari mexanizmi, «budjet» va «korporativ» buyurtmachilar, elektron tizimlar, elektron savdolar bo‘yicha maxsus komissiya, kapital qurilish, UNCITRAL.

ТЕНДЕНЦИЯ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются вопросы совершенствования системы государственных закупок, законодательных и подзаконных актов, сравниваются периоды развития нормативно-правовых основ, перспективы и зарубежный опыт. Раскрыты основные нововведения закона Республики Узбекистан "О государственных закупках" в осуществлении государственных закупок. Изучен порядок совершенствования закупочных процедур для государственных заказчиков.

Ключевые слова: государственные закупки, нормативно-правовые основы, механизм государственных закупок, “бюджетные” и «корпоративные» заказчики, электронные системы, специальная комиссия по электронным продажам, капитальное строительство, UNCITRAL.

THE TREND OF DEVELOPMENT OF PUBLIC PROCUREMENT IN THE LEGISLATION OF OUR COUNTRY

ANNOTATION

The article covers issues of strengthening the system of Public Procurement, Law and Under-Law documents, comparing periods of development, prospects and foreign experience of legal-regulatory framework. The law of the Republic of Uzbekistan "on public procurement" reveals the main innovations in the implementation of Public Procurement. The procedure for improving procurement procedures for state customers has been studied.

Keywords: Public Procurement, Legal and regulatory framework, mechanism of public procurement, "budget" and "corporate" customers, special commission on electronic sales, capital construction, UNCITRAL.

Mamlakat miqyosidagi har qanday jarayon shu davlat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun juda muhim, uning natijasi, salbiy yoki ijobiy bo‘lishiga qarab, mamlakat aholisiga, davlatning iqtisodiy mexanizmi va uning tarkibiy qismlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Davlat xaridari jarayoni ham ulkan hamda murakkab mexanizm bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar emas, balki yuqori samara keltirishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham makrodarajadagi qanday jarayon yuz bermasin, shu jumladan, davlat xaridari ham, qonun va qonun osti hujjatlar bilan mustahkamlab borilishi zarur. Aynan qonunchilik davlat xaridari mexanizmini takomillashtirish va uning nazoratini tashkil etishga ko‘maklashadi hamda davlat xaridari subyektlarining manfaatlari nohaq buzilishi, qabul qilingan qonun-qoidalardan chetlanishlarni oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasida Davlat xaridarini tashkil etish va tartibga solishning huquqiy-normativ asoslari yaratilgan. Bu orqali davlat xaridlarining samarali, maqsadli sarflanishi hamda ularning shaffofligi ta’minlanadi.

Respublikamizda xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarini tashkil etishning o‘ziga xos tizimi shakllantirildi. Bunda asosiy urg‘u budget mablag‘laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ko‘proq imtiyozlar berish, hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmini xalqaro andozalarga mos holda tashkil etildi.

Davlat xaridlarining asosiy tartibga soluvchi eng yuqori hujjati «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minlash bilan birga, davlat budjeti va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan foydalanishni, korrupsiyani profilaktika qilishda tartiblovchi mexanizmni ishlashini mustahqamlamoqda.

Ushbu qonun davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda xalqaro tajribani, jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (YuNSITRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Evropa Ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Belarus va boshqa davlatlarning davlat xaridlari bo'yicha qonunchiligini hisobga olgan. Xalqaro tashkilotlar, Xalqaro bank, ekspert va biznes-hamjamiyati, vazirlik va idoralar vakillari takliflari inobatga olingan.

Qonundagi asosiy yangiliklar:

- Davlat buyurtmachisining ikkita yangi kategoriyalari kiritilgan – «budjet» va «korporativ» buyurtmachilar;

- vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilandi. Ilgari davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi;

- davlat xaridlarining barcha turlari uchun maxsus axborot portali joriy etilmoqda. Elektron do'kon va auksionda g'olibni aniqlash avtomatik tarzda elektron tizim orqali amalga oshiriladi;

- maxsus talablar tatbiq etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) elektron do'kon orqali xarid etiladi. Budjet buyurtmachilari uchun -25 BHM, yiliga 2500 BHMdan ortiq bo'lmagan holda, korporativ buyurtmachilar uchun – 250 BHMdan ortiq bo'lmagan limitlar o'rnatildi. Avval elektron savdo orqali birjada faqat 10-13 tovar, ish, xizmatlar guruhi ro'yhatiga kirgan, 100 ming AQSh dollari qiymatigacha bo'lgan faqat birinchi darajada zarur bo'lgan tovarlar xarid qilingan;

- tender tanlovlari uchun so'm limitlar o'rnatilgan: budjet buyurtmachilari uchun – 6000 BHM dan yuqori, korporativ buyurtmachilar uchun- 25000 BHM dan yuqori. Ilgari tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan yuqori bo'lgan summaga o'tkazilgan;

- xarid qilish tartib-taomillari ustidan monitoring va nazorat tartibga solinmoqda.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha tuzilayotgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tadbqiq etiladi. Ilgari davlat xaridlarini nazorat qilish masalasi tartibga solinmagan, nizo va kelishmovchiliklar faqat elektron savdolar bo'yicha maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan.

Mahalliy olimlardan U.Yu.O'roqov, E.Sh.Shadmanov o'z ilmiy ishlarida mamlakatimiz Davlat xaridlari tizimini rivojlanishini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lishgan[1]. Ya'ni:

*Birinchi bosqichida (2011 yilgacha bo'lgan davr)*da davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek, “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida shakllandi va

rivojlandi. Ushbu hujjatlar asosida ayrim murakkab va o‘ziga xos ma’no kasb etadigan masalalarni yoritish maqsadida bir qator qonunosti hujjatlari ishlab chiqilgan.

Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish bo‘yicha davlat kontrakti va kontraktatsiya shartnomasining mohiyati, ularni tuzish va bajarish tartibi, tomonlarning majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, hamda ushbu munosabatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqi va majburiyatlarini, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgiladi.

Davlat xaridari tizimining rivojlanishining *ikkinchi bosqichi* (2011 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davr) xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda xaridlar tizimini ochiq-oshkoraligini ta‘minlash, ushbu tizimga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish orqali raqobatni ta‘minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu vaqtga kelib, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikni xususiy va davlat sektori talablariga javob beradigan darajada rivojlantirish davr talabiga aylangan.

Ana shunday vaziyatda “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va unga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xaridlari rivojlanishining ikkinchi bosqichini ochib bergan Qarori[2] qabul qilingan.

Ushbu Qarorga asosan bir qator yangiliklar amaliyotga tatbiq etildi, jumladan, bir shartnoma summasi 300 AQSh dollaridan oshmaydigan tovar(ish, xizmat)lar to‘g‘ridan- to‘g‘ri sotib olinishi, 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo‘lgan tovar(ish, xizmat)lar elektron auksionlar o‘tkazish va tanlov savdolari orqali xarid qilinishi, 100 ming AQSh dollaridan 1 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan tovar(ish, xizmat)lar tenderlar orqali amalga oshirilishi belgilandi. Davlat xaridlari tizimini tartibga solish va bu yo‘nalishdagi qonunchilikni takomillashtirish uchun mas‘ullik yuklatilgan Hukumat komissiyasi tuzilgan.

Davlat xaridlari tizimining rivojlanishining uchinchi bosqichi 2018-yil 9 apreldan 2021 yil 21 aprelgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy bazani shakllantirish hamda uni bir xilda qo‘llash maqsadida 2018 yil 9 aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. 12 bob, 79 moddadan iborat Qonun davlat xaridlari ochiqligi va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta‘minlashga, davlat budjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratgan.

To‘rtinchi bosqichi 2021 yil 22 apreldan keyingi davrni qamrab oladi. Aynan shu sanada “Davlat xaridlari to‘grisida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunni tayyorlashda BMT xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (YUNSI TRAL) ommaviy xaridlar bo‘yicha namunaviy qonuni asosiy qoidalari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tavsiyalari hamda qator xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanilgan. Qonun Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Istanbul harakatlar rejasi monitoringi, Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini xalqaro baholash (PEFA) kabi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi deb ajratgan.

Davlat xaridlarini rivojlanishini yuqoridagi bosqichlarga shartli bo‘lishgan bo‘lsada, biz uni **amalda bajarilishidagi keskin o‘zgarishlarga qarab** uch davrga bo‘lishni lozim topdik. Ya’ni:

- birinchisi 1991 yildan 2000 yilgacha bo‘lgan davr – davlat haridlarini shakllantirish davri;
- ikkinchisi 2000 yildan 2018 yilgacha bo‘lgan davr – davlat haridlarini takomillashtirish davri;
- uchinchi 2018 yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davr - davlat haridlarini to‘liq elektronlashtirish davri.

Birinchi davrni - “o‘tish davri” deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda katta iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda hukumatimiz tomonidan Davlat ta’minoti muassasalari, maxsus iste’molchilar va davlat zahirasi uchun tovar (ish, xizmat) larni xarid qilish tizimini yanada takomillashtirish, shu maqsadlarga yo‘naltiriladigan budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hisoblab aniqlangan ehtiyoj (miqdor bazasi, iste’mol normasi va bozorning o‘rtacha maqbul narxi)dan kelib chiqqan holda navbatdagi yilga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilishni moliyalashning chegaralab qo‘yilgan limitlarini belgilash huquqini berdi.

Davlat ehtiyojlari uchun davlat ta’minoti muassasalari, maxsus iste’molchilar va davlat zahirasi uchun xarid qilishni, qoida tariqasida, tanlov asosida amalga oshirish belgilandi. Xarid qilishni eng avvalo, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar bilan bevosita shartnomalar bo‘yicha, shuningdek ularning mahsulotini “O‘zulgurjibirjasavdo” tizimining yarmarka va birja savdolarida sotib olish yo‘li bilan ta’minlash tartibi belgilandi. Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning resurslar bilan ta’minlanmagan qismigina tender asosida amalga oshirishga ruxsat berildi.

Davlat xaridlari tushunchasidan ham qonunchilikda foydalanish boshlandi. Dastlabki ibora “ Davlat xaridlari - tovarlarni to‘liq yoki qisman davlat mablag‘lari hisobiga xarid qilish”[3] deb qo‘llanildi. Shartnomaviy (erkin) xarid narxlari tushunchasidan keng foydalanish boshlandi[4].

Davlat ehtiyojlari uchun tovar yetkazib beruvchilarni tanlash, to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish, yarmarka va birja savdolarida, ochiq va yopiq tender xarid qilish shakllari orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi o‘rnatildi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan barqaror ta‘minlash maqsadida ularga qat‘i xarid narxlari preyskurantlarining chegaralangan miqdorlarini qonunchilik bilan belgilash orqali davlat ijtimoiy himoya funksiyasini bajargan, jumladan chorva va sut xarid narxlarining chegaralangan miqdorlari.

Ikkinchi davr - davlat xaridlariga kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilishni tashkil etish, tender va tanlov savdolarini amalga oshirish hamda takomillashtirish davri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 3- sentabrdagi «Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 414-sonli qaroriga muvofiq, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 2000-yil 1-yanvardan budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas‘uliyatini oshirish belgilandi. O‘z bo‘linmalari uchun markazlashtirilgan xaridni amalga oshiradigan budjet tashkilotlari rahbarlari davlat xaridlarini tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsan javobgarligi belgilandi.

Mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish, xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari tashkil etish va o‘tkazish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi hamda Vazirliklar va idoralarga (budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar) tovarlar, ishlar, xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishda ushbu Nizomga amal qilish belgilandi.

Bu qaror 2000-yil 1-dekabrda boshlab 2021 yilga qadar davlat xaridi tizimini tartibga solishda katta o‘rin tutdi va respublikamizda bir qator yangiliklar amaliyotga tatbiq etildi:

- xorijiy tovar yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda, mamlakatimiz korxonalarini, shu jumladan kichik biznes subyektlarini tender savdolari jarayoniga jalb etish imkoniyatlarini berdi;

- import qilinadigan va O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari o‘tkazishni tashkil etish mexanizmini belgilab berdi;

- tender bo'yicha xaridlarda qatnashuvchi mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) bilan hisob-kitoblar so'mlarda amalga oshirilishi o'rnatildi;

- qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda davlat xaridi qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish savdolar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari belgilandi;

- tenderlarning o'tkazish usullariga ko'ra turlari (ochiq yoki yopiq), tashkil etish va o'tkazish bosqichlari, ishchi guruh vax arid komissiyasi, e'lonlarni tayyorlash va chop etish, tender o'tkazish tartibi, tender hujjatlariga qo'yiladigan asosiy shartlar, takliflarini baholash tartibi, batafsil belgilandi;

- tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollari miqdoridan oshadigan bitta kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda ishchi organ buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda bajarish belgilandi.

456 qarorga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilib, uha ko'ra:

- tender (tanlov) o'tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan kontraktlar tuzish ro'yxati shakllantirildi;

- Yagona yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzilishi muddatlari va shartlari belgilandi.

Unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrda PQ-1245-son qarori bilan:

- 10 ta eng kam oylik ish haqidan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo'yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qarori bilan, tender savdolari o'tkazmasdan, belgilangan yo'llar bilan eng **yaxshi takliflarni tanlab olish asosida** amalga oshirish tartibi kiritildi.

Qarorga 2011-yil 1-aprelda "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 100-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilib yangi tizimga zamin yaratildi:

- tender (tanlov) o'tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan to'g'ridan- to'g'ri (sotib olinishi) kontraktlar tuzish ro'yxati tasdiqlandi, ulardan, shartnoma tuzish vaqtida 300 AQSh dollaridan oshmagan summada tovar(ish, xizmat)lar sotib olinganda, tovarlar yetkazib berish, tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyati sohasiga tegishli bo'lganda, tovarlar birja orqali xarid qilinganda, tovarlarni sotishga alohida huquqi bo'lgan faqat bitta yetkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish mumkin bo'lganda, tuzilgan kontraktning shartlari dastlabki kontrakt umumiy summasining 20 foizidan oshmaydigan summaga teng qo'shimcha ishlarni bajarish maqsadida o'zgarganda va h.k.;

- 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo'yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko'ra eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o'tkazmasdan amalga oshirish tartibi kiritildi;

- 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo'yicha ro'yxati Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning ayrim turlari davlat xaridlari O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron auksion savdolar orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Vazirlar mahkamasining qaroriga so'nggi o'zgarishi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda 992-son qarori bilan:

- bir ming AQSh dollaridan kam summasidagi bir kontrakt bo'yicha yetkazib berishda xarid tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxi, sifati va yetkazib berish muddatlari bo'yicha eng maqbul shartlarni taklif etgan yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish tartibi joriy etildi;

- bir ming AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo'yicha yetkazib berishda xarid qilnadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning yetkazib beruvchilar yoki pudratchilar e'lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni taqqoslash yo'li bilan buyurtmachilar tomonidan tashkil etiladigan idoraviy tanlov komissiyalari tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan amalga oshirish tartibi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori[5] hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom”, “Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida Nizom” ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Qarorlar va Nizomlar davlat budjeti, davlat boshqaruvi organlari va davlat korxonalarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, mahsulotlar sotib olish, asbob-uskunalarini olish, qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya, korxonani modernizatsiya qilish va qayta qurollantirish, kapital ta'mirlash bilan aloqador, obyektini loyiha-qidiruv ishlari ham qo'shilgan holda, barcha ish va xizmatlar kompleksi xaridini tartibga soldi.

Davlat xaridarining yanada mukammal, ochiq va shaffof, o'zida tadbirkorlik subyektlariga rag'batlantirish imkoniyatini beradigan yangi mexanizm amalga kiritildi.

Elektron shakldagi korporativ xaridlar tizimiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularni amalga

oshirishda raqobatni rivojlantirish va oshkoralikni ta'minlash, tabiiy monopoliyalar subyektlarining tovarlari hamda xizmatlari narxlarini maqbullashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 5-apreldagi “Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishini kengaytirish to'g'risida”gi PQ-1948-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tabiiy monopoliya subyektlari, davlat unitar korxonalar va xo'jalik jamiyatlari ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) bir shartnoma bo'yicha ekvivalenti 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil qilinadigan alohida savdo maydonchasida elektron savdolar vositasida xarid qiladilar hamda O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan o'tkaziladigan elektron savdolar davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliya subyektlari, korxonalar va tashkilotlar xarid qiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati maxsus Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Elektron auksion savdolarining samaradorligidan kelib chiqib, mazkur savdolarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yanada kengroq jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xarid tizimida raqobatni rivojlantirish va oshkoralikni ta'minlash, hamda mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishini kengaytirish to'g'risida” Qarori[6] qabul qilindi. Unda korporativ xaridlar hamda xizmatlar narxlarini maqbullashtirish maqsadida 2013 yilning 1 mayidan boshlab ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tabiiy monopoliya subyektlari, davlat unitar korxonalar va xo'jalik jamiyatlari ham ayrim turdagi tovar(ish, xizmat) larni bir shartnoma bo'yicha ekvivalenti 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda O'zbekiston Respublika tovar – xom ashyo birjasining alohida savdo maydonchasida tashkil qilinadigan elektron savdolar vositasida xarid qilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublika tovar – xomashyo birjasi tomonidan o'tkaziladigan elektron savdolar davlat ulushi ustuvor bulgan tabiiy monopoliya subyektlari, korxonalar va tashkilotlar xarid qiladigan ayrim tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati maxsus Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan bo'ldi. Mazkur korporativ xaridlar tizimidagi elektron auksion savdolaridan ham ijobiy natijalarga erishildi.

Bunday muammolarga barham berish, budjet tashkilotlarining shoshilinch yoki oldindan ko'rilmagan zaruriyat tufayli yuzaga kelgan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni o'z vaqtida sotib olinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning Davlat xaridarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori[7] bilan amaliyotga elektron

kataloglar orqali davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi joriy qilindi. Buyurtmachilar va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilar birjaning vositachilik yig‘imi summasi miqdorida avans to‘lovlarini kiritish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Buyurtmachi elektron katalogda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘ziga zarur bo‘lgan tovarni tanlab olish va tovarni tanlaganidan so‘ng narxlarni so‘rash ishtirokchilari tomonidan berilgan narxga doir takliflarni taqqoslash elektron tizimning dasturiy majmuasi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshirish mexanizmi shakllantirildi.

Tuzilgan kontraktlar reyestri birja tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va birjaning ma‘lumotlar bazalari elektron o‘zaro hamkorligi yo‘li bilan avtomatik rejimda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligiga yuborish boshlandi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlari tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017 yil 23 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3237-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, 2017 yilning 23 avgustidan bitta kontrakt bo‘yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar orqali amalga oshirishga oid talab bekor qilindi.

Kontrakt bo‘yicha mablag‘ miqdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shartnoma tuzilgan sanadagi rasmiy kursi bo‘yicha hisoblanishi belgilandi.

Uchinchi davr bu **to‘liq elektronlashtirish** (raqamlashtirish) davri hisoblanadi. 2018 yil 9 aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining yangi qonuni qabul qilindi. 12 bob, 79 moddadan iborat Qonun davlat xaridlari ochiqligi va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta‘minlaydigan, davlat budjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratdi.

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan amaliyotga kiritilgan asosiy yangiliklar:

- qonun davlat xaridlarining besh tartib-taomili(turi)ni belgiladi, ya‘ni *elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, tanlov, tender, yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari*. Bulardan ikkitasi (elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion) Davlat xaridari bo‘yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etadi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo‘li bilan ta‘minlandi;

- xarid tizimida davlat buyurtmachisining ikkita kategoriyalari birlashtirildi. Bular - *budget buyurtmachilari* (davlat organlari; budget tashkilotlari; xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budget mablag‘larini oluvchilar; davlat maqsadli jamg‘armalari) *hamda korporativ buyurtmachilar* (davlat korxonalari; ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar; ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar);

- davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash hamda davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlari, tartib-taomillari va usullarini birxillashtirish maqsadida davlat xaridlari tizimida ilk bora davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati; asoslanganlik; moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi; ochiqlik va shaffoflik; tortishuv va xolislik; mutanosiblik; davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi; korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik kabi davlat xaridlarining asosiy prinsiplar kiritildi;

- bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan baravar miqdoridan budget buyurtmachilari va korporativ buyurtmachilar uchun tovarlar va ishlarhamda xizmatlarga aloxida yondashilib, bir yilda bir davlat buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining cheklangan summadan ko‘p bo‘lmagan tartibi joriy etildi;

- xarid qilish tartib-taomillari ustidan doimiy monitoring va qat‘i nazorat yo‘lga qo‘yildi, xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish vositasida amalga oshirilishi belgilandi. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkinligi belgilandi;

- davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus komissiyani shakllantirildi. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tadbiq etildi. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus komissiyaga shikoyatni qisqa davr mobaynida davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko‘rib chiqish, hamda shikoyat olinganidan keyin etti ish kuni ichida qaror chiqarishi va axborotni maxsus axborot portaliga joylashtirish amaliyoti kiritildi. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni elektron tarzda ko‘rib chiqish moduli yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy

etish, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro‘yxatdan o‘tkazish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 249-sonli qaroriga muvofiq, 2021-yil 1-iyundan boshlab quyidagilarni o‘z ichiga olgan tartiblar:

- Yagona elektron shartnomalarning axborot portalida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni ixtiyoriy ravishda elektron ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Shartnomalar portalida ro‘yxatdan o‘tgan shartnomalar asosida mahsulotlarning (tovar va xizmatlarning) unifikatsiyalashgan nomlari va identifikatsiyalash kodlarini hisobvara-q-fakturalarda avtomatlashtirilgan tarzda aks ettirish;
- tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari axborot tizimi orqali shartnoma yoki onlayn oferta asosida rasmiylashtirish tartibi joriy etildi.

Bu albatta yakuniy qadam bo‘lmadi, qonunchilikda ham xarid tizimini rivojlanish tendensiyalari va 2019 yilning noyabr-dekabr oylarida Xitoy Xalq Respublikasining Uxan shahrida paydo bo‘lgan koronavirus pandemiyasining jahon miqyosida keng tarqalishi xalqaro va ichki bozorlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatganligi oqibatida aksar rivojlangan mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining yomonlashuvida o‘zini namoyon qila boshlagan va asta-sekin global tanazzulga olib kelgan jahon moliyaviy inqirozi davrida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning roli ortdi. Shu davrda mamlakatimizdagi birja savdolari va elektron tijorat sohalarida sotiladigan tovar (ish, xizmat)larning ro‘yxati kengayishi, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning elektron savdodan foydalanish imkoniyatlarining oshganligi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Uning ta‘sirida davlat xaridlari tizimida sog‘lom raqobatni kuchayishiga va real bozor sharoitlarini hisobga olgan holda, narx belgilashning zamonaviy mexanizmi takomillashtirildi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq 2022 yil 1 yanvardan boshlab eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillari majburiy tartibda to‘liq elektron shaklda o‘tkazish amaliyoti joriy etildi. Mazkur jarayonda ishtirokchilarning takliflarini davlat xaridlarining elektron tizimi orqali elektron tarzda taqdim etish imkoniyati yaratildi hamda xarid komissiyasi tomonidan takliflarni ko‘rib chiqish va baxolash jarayoni to‘liq elektronlashtirildi.

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari qayta ko‘rib chiqildi. Eng yaxshi takliflarni tanlash (ilgari – tanlov) hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari (ilgari – yagona yetkazib beruvchida davlat xaridi) joriy etiladi[8]. Shuningdek Prezidentning farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlariga kiritilishi belgilandi

hamda davlat buyurtmachilari va tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida xarid qilish tartib-taomillari soddalashtirildi. Bunda davlat buyurtmachilariga xarid qilish tartib-taomillari turlarini mustaqil tanlash imkoniyati yaratildi (1-jadval).

1-jadval

Davlat xaridlari tartib-taomillari va mezonlari¹

Xarid turi		Budjet buyurtmachilari uchun	Korporativ buyurtmachilar uchun	Muddati	Amalga oshirish tartibi	Agar xarid oshmasa	Ijrochini aniqlash
To‘g‘ridan-to‘g‘ri (soddalashtirilgan tanlash)	tovar ish, xizmat	BHMning 25 gacha	BHMning 50 gacha	-	qog‘oz va elektron	-	buyurtmachi tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
	bir moliya yilida	BHMning 500 gacha	BHMning 1000 gacha				
Elektron do‘kon	tovar	BHMning 2 500 gacha (bir moliya yilida ayni bir turdagi tovar 10 000 baravargacha)	BHMning 25 000 gacha	48 soat	elektron	1. auksion 2. eng yaxshi takliflarni tanlash	operator tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
	ish, xizmat	BHMning 50 gacha (bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 500 baravargacha)	BHMning 100 gacha (bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 1000 baravargacha)				
Auksion	tovar	BHMning 6 000 gacha	BHMning 25 000 gacha	5 ish kuni	elektron	1. 3 kun uzaytiriladi 2. elektron do‘kon 3. eng yaxshi takliflarni tanlash	operator tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
	ish, xizmat	-	-	-	-	-	-
Eng yaxshi takliflarni tanlash	tovar ish, xizmat	BHMning 6 000 gacha	BHMning 25 000 gacha	5 ish kuni (2 ish kuni muhokama)	qog‘oz va elektron	1. eng yaxshi takliflarni tanlash 2. elektron do‘kon 3. auksion	xarid komissiyasi aniqlaydi (5nafardan kamida 2/3 qismi)
Tender	tovar, ish, xizmat	BHMning 6 000 dan yuqori	BHMning 25 000 dan yuqori	12-30 ish kuni	qog‘oz va elektron	qayta tender	xarid komissiyasi aniqlaydi (7 nafar)

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovar (ish, xizmat)lar klassifikatori ishga tushirildi.

Raqamlashtirish sohasida sun’iy intellektdan foydalangan holda xaridlar sohasining barcha jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va oldini olishning zamonaviy mexanizmlari joriy qilinmoqda.

Davlat xaridlarida qatnashayotgan ishtirokchilarining o‘z roziligiga ko‘ra taqdim etgan takliflari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat xaridlari elektron tizimida barcha uchun ochiqlash imkoniyati yaratildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, davlat xaridlarining huquqiy asoslari mamlakatimizda tartibga solindi, jahon andozalariga moslandi, korrupsiyadan yiroq bo‘lgan elektron xarid tizimi yaratildi.

Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun horijiy tajribadan foydalanib yangicha uslublarini tadbiq etishimiz lozim. Xarid tizimidagi quyi qatlamda mavjud muammolar doimiy tarzda onlayn tartibda o‘rganib borishimiz lozim.

Shuningdek davlat xaridlarini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash, tadbirkorlarga keng imkoniyat berish borasida:

- xaridlar bozorida tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini oshirish;
- Raqamlashtirishda sun’iy intellektdan foydalangan holda xaridlar sohasining barcha jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va ularning oldini olishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish;
- ishtirokchilarning narx takliflarini baholashda QQS summasini inobatga olmasdan davlat xaridlarining elektron tizimi orqali avtomatik taqqoslash amaliyoti joriy qilish;
- rivojlangan davlatlar tajribasida foydalanadigan yangi xarid turlarini joriy qilish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish;
- xarid subyektlariga soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish, hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va yagona elektron bazada integrasiyalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridari. O‘quv qo‘llanma. – T.: JXU, 2022. – 208 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475- sonli “Davlat xaridlari tizimini makbullashtirish va unga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-avgustdagi 397-sonli “Davlat ehtiyojlari uchun asosiy oziq-ovqat turlarini xarid qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 16-iyuldagi “1993 Yilning 20 iyulidan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ayrim turlarining shartnomaviy (erkin) xarid va chakana narxlariga o‘tish to‘g‘risida”gi 360-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 302-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilning 5 apreldagi PQ-1948-sonli “Elektron xaridlar tizimini makbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub’ektlarining foydalanishini kengaytirish tug‘risida” Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 martdagi 69-sonli “O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik sub’ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

8. Usmonov Shavkatjon Shukurovich. (2024). Davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish va uning davlatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni. *Journal of New Century Innovations*, 61(2), 169-178. b.